XALQ DEPUTATLARI QUVASOY SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 3 - fevral VI-44-21-11-167-K/22 Quvasoy shahar hokimligi

Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashining 2022-yil 8-yanvardagi VI-43-2-11-167-K/22-sonli qarorining 1 va 2-ilovalariga tegishincha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalariga asosan Xalq deputatlari shahar Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 2-fevraldagi VI-41-17-11-0-K/22-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari shahar Kengashining 2022-yil 8-yanvardagi "Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi VI-42-82-11-167-K/21 hamda VI-42-83-11-167-K/21-sonli qarorlariga o‘zgartirish kiiritish to‘g‘risida"gi VI-43-83-11-167-K/21-son qarori bilan tasdiqlangan 1 va 2-ilovalari mazkur qarorning 1 va 2-ilovalariga muvofiq yangi tahrirda bayon etilsin;

Quvasoy shahrida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 1-ilovaga;

Quvasoy shahrida jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari X.Xoldorov, shahar moliya bo‘limi mudiri (T.Mamasiddiqov), davlat soliq inspeksiyasi (X.Urmanov) 1 kun muddatda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha aniqlashtirilgan miqdorda belgilangan soliq stavkasini soliq to‘lovchilariga yetkazilishini ta’minlasin.

4. Shahar hokimligi Axborot xizmati (Z.Abdullajonov), “Isfayram” gazetasi (O‘.Karimova)ga mazkur qarorni Isfayram gazetasi va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda hokimligining rasmiy veb-saytlariga joylashtirsin.

5. Manfaatdor tashkilotlar o‘zlarining idoraviy meyoriy hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

6. Kengash qarori bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi A.Qosimov hamda shahar hokimining birinchi o‘rinbosari X.Xoldorov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **Mexmonov M. D.**

Халқ депутатлари Қувасой шаҳар
Кенгашининг
2022 йил 3 февралдаги
VI-44-21-11-167-К/22-сон қарорига
1-илова

Quvasoy shahrida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

ming so‘mda

T/r	MFY lar nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (1 ga uchun)
1	Arsif MFY	0,70	18 067
2	Qalacha MFY	0,70	18 067
3	Yangi obod MFY	0,70	18 067
4	Yukori Muyan MFY	1,00	25 810
5	Muyon MFY	1,00	25 810
6	Isfayramsoy MFY	1,00	25 810
7	Kokilon MFY	1,00	25 810
8	Pakana MFY	1,00	25 810
9	Do‘stlik MFY	0,70	18 067
10	Qo‘chqorchi MFY	0,70	18 067
11	Namuna MFY	0,70	18 067
12	Bo‘ston MFY	0,70	18 067
13	Valik MFY	0,70	18 067
14	Nayman MFY	0,70	18 067
15	Sufon MFY	0,70	18 067
16	A.Temur MFY	1,10	28 391
17	M.Ulug‘bek MFY	1,10	28 391
18	Xuvaydo MFY	1,10	28 391
19	A.Navoiy MFY	1,10	28 391
20	Cho‘lpon MFY	1,10	28 391
21	Lashkar MFY	1,00	25 810
22	Bog‘bon MFY	1,10	28 391
23	Polmon MFY	1,10	28 391
24	Zebuniso MFY	1,10	28 391
25	Soy buyi MFY	1,10	28 391
26	Yoshlik MFY	1,10	28 391
27	Ziynat MFY	1,10	28 391
28	X.Olimjon MFY	1,10	28 391
29	Guliston MFY	1,10	28 391
30	Xamdo‘stlik MFY	1,10	28 391

Халқ депутатлари Қувасой шаҳар
Кенгашининг
2022 йил 3 февралдаги
VI-44-21-11-167-К/22-сон қарорига
2-илова

Quvasoy shahrida jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

so‘mda

T/r	MFY lar nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (1 kv uchun)
1	Arsif MFY	0,70	154,7
2	Qalacha MFY	0,70	154,7
3	Yangi obod MFY	0,70	154,7
4	Yukori Muyan MFY	1,00	221,0
5	Muyon MFY	1,00	221,0
6	Isfayramsoy MFY	1,00	221,0
7	Kokilon MFY	1,00	221,0
8	Pakana MFY	1,00	221,0
9	Do‘stlik MFY	0,70	154,7
10	Qo‘chqorchi MFY	0,70	154,7
11	Namuna MFY	0,70	154,7
12	Bo‘ston MFY	0,70	154,7
13	Valik MFY	0,70	154,7
14	Nayman MFY	0,70	154,7
15	Sufon MFY	0,70	154,7
16	A.Temur MFY	1,10	243,1
17	M.Ulug‘bek MFY	1,10	243,1
18	Xuvaydo MFY	1,10	243,1
19	A.Navoiy MFY	1,10	243,1
20	Cho‘lpon MFY	1,10	243,1
21	Lashkar MFY	1,00	221,0
22	Bog‘bon MFY	1,10	243,1
23	Polmon MFY	1,10	243,1
24	Zebuniso MFY	1,10	243,1
25	Soy buyi MFY	1,10	243,1
26	Yoshlik MFY	1,10	243,1
27	Ziynat MFY	1,10	243,1
28	X.Olimjon MFY	1,10	243,1
29	Guliston MFY	1,10	243,1
30	Xamdo‘stlik MFY	1,10	243,1